ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi ............................... 10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna

Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalaridan foydalangan holda masalalar yechish ............................................................................................ 13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li

Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili........................ 17
Mutallibjonov Boburmirzo

Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi ....................................................................... 26
Nosirova Feruza Baxadir qizi

Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli......................................................................................... 30
Gafurova Mahfuza Abbosovna

Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi ................. 35
Ravshanova Uldona Narziboyevna

Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni ........................................................................................................................ 39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi

Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish .... 43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li

Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antifragil yondashuvning o'rni...... 51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi

Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari ................................................................ 57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna

Talabalarning o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish ............................................................................................ 61
G'ofurov To'lqinjon

Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching .................................................................................................. 67
Ismailova Aziza Dilshodovna

Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.......................... 72
Канаатов Есимкан

Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti......................... 76
Abdullayev Amirulla Xazratovich

Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi ........................................................ 81
Pardayeva Kamola Sultonovna

Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish .............. 86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich

Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diagnostik tizimini joriy etish va boshqarish ....................................................................................................... 91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich

Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarning o'qish samaradorligini oshirish ..................................... 96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli ............................................................................................ 99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich

Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari ........ 103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna

Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari ........ 108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich

# SUN'IY INTELLEKT MUHITIDA O'SIB KELAYOTGAN ALFA AVLODINING SHAXSIY VA PSIXIK RIVOJLANISHI

Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sun'iy intellekt muhitida shakllanayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Sun'iy intellekt texnologiyalarining bolalarning kognitiv rivojlanishi, emotsional barqarorligi, motivatsion sohasi, kommunikativ kompetensiyasi hamda ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, raqamli muhitning shaxs rivojlanishidagi ijobiy imkoniyatlari va ehtimoliy psixologik xavflari tahlil qilinib, Alfa avlodining sog'lom psixik rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuvlar asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, Alfa avlodi, shaxs rivojlanishi, psixik rivojlanish, kognitiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, ijtimoiylashuv, raqamli muhit, raqamli savodxonlik, psixologik xavfsizlik, ta'lim texnologiyalari, sun'iy intellekt texnologiyalari.

**Abstract:** This article examines the socio-psychological characteristics of the personal and psychological development of Generation Alpha growing up in an environment shaped by artificial intelligence technologies. Based on contemporary scientific research, the study analyzes the impact of artificial intelligence on children's cognitive development, emotional stability, motivation, communication competence, and socialization. The paper also discusses both the opportunities and potential psychological risks of the digital environment and substantiates psychological and pedagogical approaches aimed at ensuring the healthy personal and psychological development of Generation Alpha.

**Key words:** artificial intelligence, Generation Alpha, personality development, psychological development, cognitive development, emotional development, socialization, digital environment, digital literacy, psychological safety, educational technologies, artificial intelligence technologies.

**Аннотация:** В статье рассматриваются социально-психологические особенности личностного и психического развития поколения Альфа, формирующегося в условиях широкого распространения технологий искусственного интеллекта. На основе современных научных исследований проанализировано влияние искусственного интеллекта на когнитивное развитие, эмоциональную устойчивость, мотивационную сферу, коммуникативную компетентность и процессы социализации детей. Особое внимание уделено как позитивным возможностям цифровой среды, так и потенциальным психологическим рискам, а также обоснованы психолого-педагогические подходы к обеспечению гармоничного развития личности детей поколения Альфа.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, поколение Альфа, развитие личности, психическое развитие, когнитивное развитие, эмоциональное развитие, социализация, цифровая среда, цифровая грамотность, психологическая безопасность, образовательные технологии, технологии искусственного интеллекта.

## KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining barcha sohalarga keng tatbiq etilishi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan keyin tug'ilgan Alfa avlodi aynan sun'iy intellekt, raqamli platformalar, intellektual algoritmlar, virtual muloqot va avtomatlashtirilgan ta'lim muhitida shakllanayotgan birinchi avlod sifatida tavsiflanadi. Ushbu avlodning shaxsiy va psixik rivojlanishi oldingi avlodlardan sezilarli darajada farq qilib, ijtimoiylashuv, kognitiv taraqqiyot, emotsional holat, qadriyatlar tizimi hamda shaxslararo munosabatlarning shakllanishida yangi psixologik qonuniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alfa avlodiga mansub bolalar tug'ilgan paytdanoq raqamli texnologiyalar bilan o'ralgan muhitda hayot kechirmoqda. Ular uchun sun'iy intellekt asosida ishlovchi ovozli yordamchilar, intellektual o'yinlar, adaptiv ta'lim platformalari, robototexnika, virtual reallik va generativ texnologiyalar kundalik hayotning tabiiy qismi hisoblanadi. Marc Prensky (2001) va Don Tapscott (2009) ta'kidlaganidek, raqamli avlod vakillari texnologiyalar bilan uzviy integratsiyalashgan holda voyaga yetadi. Shu sababli ularning atrof-muhitni anglash usuli, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonlari ham an'anaviy muhitda tarbiyalangan bolalardan ma'lum darajada farq qiladi. [3]

Kognitiv rivojlanish nuqtayi nazaridan sun'iy intellekt muhiti Alfa avlodida tezkor axborotni qayta ishlash, vizual idrokning yuqori darajada rivojlanishi, ko'p vazifalilik, raqamli savodxonlik va mustaqil axborot izlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi hamda Lev S. Vygotskyning sotsiokultural rivojlanish konsepsiyasi ushbu jarayonlarni tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Interaktiv ta'lim tizimlari har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish imkoniyatini yaratadi. Bunda ta'lim mazmuni bolaning qobiliyati, bilim darajasi, o'qish sur'ati va ehtiyojlariga moslashtirilib taqdim etiladi. Natijada ta'lim samaradorligi ortib, bilish faolligi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalari yanada rivojlanadi. [1]

Shu bilan birga, sun'iy intellekt muhitida o'sish kognitiv jarayonlarning ayrim jihatlariga salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. John Sweller tomonidan ishlab chiqilgan Cognitive Load Theory (Kognitiv yuklama nazariyasi) hamda Nicholas Carrning raqamli axborotning inson tafakkuriga ta'siri haqidagi tadqiqotlari doimiy ravishda qisqa formatdagi axborotlar bilan ishlash diqqatning barqarorligi pasayishiga, chuqur tahlil qilish qobiliyatining susayishiga hamda xotiraning tashqi raqamli manbalarga ortiqcha bog'lanishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu holat "raqamli kognitiv yuklama" deb ataluvchi psixologik hodisa bilan izohlanadi. Axborotning haddan ziyod ko'pligi bolada muhim va ikkinchi darajali ma'lumotlarni saralash qobiliyatini murakkablashtiradi. [3]

Shaxs rivojlanishida ham sun'iy intellekt muhitining ta'siri juda keng qamrovlidir. Lev S. Vygotsky hamda Sherry Turkle tadqiqotlarida qayd etilganidek, Alfa avlodi o'zining shaxsiy "Men" konsepsiyasini nafaqat real ijtimoiy munosabatlar orqali, balki raqamli platformalardagi ijtimoiy faollik asosida ham shakllantirmoqda. Virtual muhitda o'zini namoyon qilish imkoniyati bolalarning ijodkorligi, tashabbuskorligi va kommunikativ faolligini rivojlantirishi mumkin. Biroq raqamli muhitdagi ijtimoiy baholash, layklar, reytinglar va algoritmlar orqali shakllanuvchi ijtimoiy maqom ba'zi hollarda shaxsiy o'z-o'zini baholashning tashqi omillarga haddan tashqari bog'lanishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxsiy barqarorlikning pasayishi, tashqi bahoga qaramlik, ijtimoiy taqqoslash va emotsional qoniqmaslik kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Psixik rivojlanishning emotsional sohasida ham sun'iy intellekt texnologiyalari ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Daniel Golemanning emotsional intellekt nazariyasi hamda Sherry Turklening raqamli muloqot bo'yicha tadqiqotlari ushbu jarayonlarni ilmiy asoslaydi. Bir tomondan, interaktiv ta'lim, kognitiv trenajyorlar, psixologik mobil ilovalar va raqamli terapiya vositalari bolalarning emotsional holatini nazorat qilish, stressni kamaytirish va psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayrim sun'iy intellekt tizimlari bolaning emotsional holatini tahlil qilish orqali individual psixologik tavsiyalar ham bera oladi. Ikkinchi tomondan esa virtual muloqotning ortishi real emotsional munosabatlarning qisqarishiga, empatiya darajasining pasayishiga, jonli ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan ehtiyojning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda nazariy-pedagogik hamda psixologik yondashuvlarga asoslangan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, tizimli tahlil, umumlashtirish va interpretatsiya usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida sun'iy intellekt texnologiyalarining bolalar psixikasi va shaxs rivojlanishiga ta'siri bo'yicha mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. Xususan, Alfa avlodining psixologik xususiyatlari, raqamli muhitning kognitiv rivojlanish, emotsional holat va ijtimoiylashuv jarayonlariga ta'siri yuzasidan mavjud ilmiy qarashlar qiyosiy-taqqoslash usuli asosida tahlil qilindi.

Tizimli tahlil usuli yordamida sun'iy intellekt texnologiyalarining Alfa avlodi rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omillari o'zaro bog'liqlikda baholandi. Shuningdek, kognitiv rivojlanish, emotsional barqarorlik, kommunikativ faollik, raqamli savodxonlik va shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'zaro integratsiyalashgan holda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida ilmiy manbalardan olingan nazariy qarashlar sintez qilinib, sun'iy intellekt texnologiyalaridan ta'lim jarayonida oqilona foydalanishning Alfa avlodi psixik rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar sun'iy intellekt muhitida voyaga yetayotgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qildi.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiylashuv jarayonida ham Alfa avlodi yangi xususiyatlarni namoyon etmoqda. Ilgari bolalarning ijtimoiy tajribasi asosan oila, mahalla va maktab orqali shakllangan bo'lsa, bugungi kunda raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o'yinlar va sun'iy intellekt asosidagi kommunikatsiya vositalari ijtimoiylashuvning muhim subyektlariga aylanmoqda. Bu esa ijtimoiy rollarni o'zlashtirish, qadriyatlar tizimining shakllanishi va axloqiy ong rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Motivatsion sohada ham muayyan o'zgarishlar kuzatiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlariga mos vazifalar, individual tavsiyalar va o'yinlashtirish elementlari motivatsiyani oshiradi. Biroq doimiy tezkor natijaga yo'naltirilgan raqamli muhit ba'zi bolalarda sabr-toqatning kamayishi, uzoq muddatli maqsadlarga intilishning susayishi va tez qoniqish ehtiyojining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Alfa avlodining psixologik xavfsizligi ham zamonaviy tadqiqotlarning muhim obyekti hisoblanadi. Kiberbulling, axborot manipulyatsiyasi, yolg'on ma'lumotlar tarqalishi, sun'iy intellekt orqali yaratilgan soxta kontent (deepfake), raqamli qaramlik va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi bolalar psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois raqamli gigiyena, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. [4]

Zamonaviy psixologiya nuqtayi nazaridan Alfa avlodining shaxsiy rivojlanishida inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt inson aqlini almashtiruvchi emas, balki uning intellektual imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qo'llanilganda shaxsning kognitiv, ijodiy va kasbiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish psixologik-pedagogik qonuniyatlar asosida tashkil etilishi, bolalarning yosh xususiyatlari, emotsional ehtiyojlari va ijtimoiy rivojlanish bosqichlari hisobga olinishi zarur.

Oila va maktab Alfa avlodining sog'lom psixik rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglar raqamli texnologiyalardan foydalanish vaqti, mazmuni va maqsadini muvofiqlashtirishi, bolalar bilan jonli muloqot, hamkorlikdagi faoliyat va emotsional qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi lozim. Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, raqamli muhit va real hayot o'rtasida muvozanatni saqlash hamda psixologik barqarorlikni rivojlantirish Alfa avlodining barkamol shaxs sifatida shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR:

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodi shaxsiy va psixik rivojlanishining o'ziga xosligi raqamli texnologiyalarning kognitiv, emotsional, ijtimoiy va motivatsion sohalarga kompleks ta'siri bilan belgilanadi. Ushbu muhit intellektual salohiyatni rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish, ijodiy fikrlash va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratsa-da, emotsional barqarorlik, ijtimoiy munosabatlar, axborot xavfsizligi va psixologik salomatlik bilan bog'liq muayyan xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishini tadqiq etish, sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologik ta'sirini ilmiy jihatdan baholash hamda ulardan samarali va xavfsiz foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adilova, M. Ta'lim tizimida zamonaviy psixologik xizmatni tashkil etish. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. – 256 b.
2. Anderson, M., & Jiang, J. Teens, Social Media & Technology 2023. – Washington, DC: Pew Research Center, 2023.
3. Bandura, A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
4. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
5. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – 2nd ed. – New York: Basic Books, 2020. – 252 p.
7. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 182 p.
8. Prensky, M. Digital Natives, Digital Immigrants. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2001. – 216 p.
9. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
10. UNICEF. The State of the World's Children 2021: On My Mind – Promoting, Protecting and Caring for Children's Mental Health. – New York: UNICEF, 2021.
11. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
12. World Health Organization (WHO). Guideline on Digital Interventions for Health System Strengthening. – Geneva: WHO, 2019.
13. World Health Organization (WHO). Global Strategy on Digital Health 2020–2025. – Geneva: WHO, 2021.
14. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №8(1)**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.